

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA‘MINLASH BORASIDAGI IMKONIYATLAR KO‘RSATIB O‘TILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-noyabr kuni kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlar sarhisobi va kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Ta’kidlanganidek, o‘tgan davrda bu yo‘nalishdagi ishlarni quyida to‘g‘ri tashkil qilish, mahallama-mahalla yurib, yangi tashabbuslarni topib, odamlar hayotini yaxshilashga mas’ul bo‘lgan viloyat, tuman hokimlari hamda ular xodimlarining moddiy va texnik imkoniyatlari tubdan yaxshilandi.

Joriy yil boshidan ishsizlik 4,9 foizga tushdi (o‘tgan yili 5,5 foiz bo‘lgan). Ayniqsa, Buxoro, Kogon, Navoiy, Zarafshon, G‘ozg‘on, Samarqand, Shirin shaharlarida ishsizlik 4 foizdan pasayib, ilk bor “tabiiy ishsizlik” darajasiga yaqinlashdi.

Ehtiyojmand 302 ming oila kambag‘allikdan chiqdi. Yil yakunigacha kambag‘allik darajasi 6 foizgacha kamayishi kutilmoqda (o‘tgan yili 8,9 foiz bo‘lgan).

Sharoti og‘ir bo‘lgan Xovos, Mirzaobod, Oqoltin, Do‘stlik, Paxtakor, Forish, Bo‘ston, Vobkent, Mirishkor, Mingbuloq, Uzun va Piskentda kambag‘al oilalarning soni 4,5 barabargacha kamaydi. Ilgari qiyin ahvolda bo‘lgan 105 ming oila daromad ko‘rishni boshladi.

Joriy yilda ilk bor 1 ming 435 ta mahalla “kambag‘allikdan xoli” hududga aylandi.

Shu bilan birga, ayrim tumanlarning hokimlari katta resursi va mablag‘i bo‘la turib, ishlarni o‘z holiga tashlab qo‘ygani, odamlarga imkoniyatiga yarasha tayyor loyiha bermagani tanqid qilindi.

Shu bois, Denov tumani hokimi va uning birinchi o‘rinbosari, Chiroqchi tumani hokimi va uning birinchi o‘rinbosari ishtidan olinishi, yana 20 ta tuman hokimiga o‘rnatilgan tartibda tegishli chora ko‘rilishi belgilandi.

Umuman, kambag‘allikni qisqartirish va bandlik rejalarini bajarishdagi mas’uliyatsizlik uchun yil boshidan 261 nafar mas’ul ishtidan olingani, yana 492 nafariga intizomiy jazo berilgani ma’lum qilindi.

Kelgusi yilda kambag‘allik va ishsizlik darajasini 4,5 foizdan kamaytirish mutasaddilarning asosiy vazifasi bo‘lishi qayd etildi. Buning uchun kelgusi yilda iqtisodiyotga 450 trillion so‘m kredit ajratilishi, 140 trillion so‘mi mahalladagi kichik va o‘rta loyihalar uchun berilishi belgilandi.

Davlatimiz rahbari bu boradagi ishlarni tashkil qilishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Birinchi — qurilish orqali aholini ishli va daromadli qilish.

Kelgusi yilda mamlakatimizda 675 trillion so‘mlik investitsiya loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Shundan 380 trillion so‘mi qurilish ishlarga to‘g‘ri keladi. 140 ming xonadonli ko‘p qavatli uy-joy qurish maqsad qilingan.

Har bir hokim bundan samarali foydalanib, qurilish sohasining o‘zidan kamida 20-25 ming, yaratilgan infratuzilma orqali 10 ming kishini bandligini ta‘minlashi mumkinligi qayd etildi.

Eng katta yangilik — 2026-yilda ilk bor mahalla infratuzilmasini rivojlantirish uchun 20 trillion so‘m viloyatlarning o‘ziga beriladi.

Ikkinchi yo‘nalish — servis loyihalarini ko‘paytirib, aholi bandligini ta‘minlash.

Mamlakatimizda eng yuqori o‘shish sur‘atini ta‘minlayotgan soha xizmatlar sohasi ekani ta’kidlandi. Lekin viloyat, tuman hokimlari xizmatlar sohasiga katta sur‘at berayotgan turizmini rivojlantirish orqali ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadini ko‘paytirish imkoniyatlarini to‘liq ishga solmayotgani ko‘rsatib o‘tildi.

Turizm salohiyati yuqori 150 ta mahallaning infratuzilmasi yaxshilansa, bu yerlarda xizmatlar hajmini 10 trillion so‘mga yetkazish, 45 ming nafar odamni savdo va servisdan band qilish mumkin.

Shu bois, kelasi yilda 150 ta mahallaning har biriga infratuzilma uchun 3-5 milliard so‘mdan beriladi. Tuman banklari bu joylarda mehmon uylarini barpo etish uchun 150 million so‘mgacha imtiyozli kredit ajratishni yo‘lga qo‘yadi.

Chegara va anklav hududlardagi mahallalarga olib boruvchi yo‘llarni ta’irlab, u yerda mehmon uylari, dam olish maskani, savdo-servis obektlari tashkil qilish orqali oilalarning daromadini ko‘paytirish muhimligi ta’kidlandi. Ushbu mahallalarda dam olish va servis obektlarini qurish loyihalar uchun 1 trillion so‘m resurs ajratish topshirildi.

Bundan tashqari, sohil va yo‘l bo‘yida servisini rivojlantirish bo‘yicha 500 ta mahalla tanlab olingan. Tuman banklari bu joylarda kamida 5 ta doimiy ish o‘rni yaratadigan loyihalarga 1 milliard so‘mgacha kredit berishni yo‘lga qo‘yadi.

Shu yilning o‘zida 255 ta tun-u kun ishlaydigan ko‘cha ishga tushdi. Ularda 11 ming xizmat ko‘rsatish obyektlari ish boshladi, 27 mingga yaqin aholining bandligi ta’minlandi. Kelgusi yilda bunga qo‘shimcha yana 200 ta shunday ko‘chani tashkil qilish rejalashtirilgan.

Bir oyda aniq “yo‘l xaritasi”ni tuzib, ishni boshlab yuborgan hokimlarga har bir ko‘cha infratuzilmasi uchun 4 milliard so‘mgacha mablag‘ ajratilishi belgilandi.

Ovqatlanish, savdo va servis sohasida o‘zining brendini yaratgan korxonalar butun respublika bo‘ylab 100-150 tadan filialini ochish niyatida.

Bu borada viloyat hokimliklariga milliy brendlarga ko‘maklashish topshirildi. Agar brendlar yangi ochiladigan filial uchun xodimlarni o‘zim o‘qitaman, desa, buning xarajati Bandlik jamg‘armasidan qoplab beriladi. Filialini ko‘paytirish istagidagi brendlar uchun yangi moliyaviy instrumentlar joriy qilinib, 2026-yilda bunga 500 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Uchinchi yo‘nalish — sanoat loyihalar orqali doimiy ish o‘rinlarini ko‘paytirish.

Kelgusi yilda hududlardagi korxonalarda 52 milliard dollarlik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish reja qilingan. Mutasaddilar mahalliy sanoat tarmoqlarida 22 milliard dollarlik 3,5 mingta loyihani ishga tushirib, 130 ming doimiy ish o‘rni tashkil qilishi zarurligi qayd etildi.

Hozirda 400 ta mahalla mebelchilik, hunarmandchilik va tikuvchilikka ixtisoslashgan. Tadbirkorlarning joyi kengaytirib berilsa, har biri yana 5-10 kishini ishga olishga tayyor.

Shu munosabat bilan tuman hokimlariga kelasi yilda sanoatga ixtisoslashgan bunday mahallalarda 50 ta “mikrosanoat markazi”ni ishga tushirib, 10 ming nafar odamni ishli qilish topshirildi. Bu markazlarning infratuzilmasi uchun 200 milliard so‘m ajratiladi.

To‘rtinchi yo‘nalish — qishloq xo‘jaligi hisobidan aholi daromadlarini oshirish.

Kambag‘allikni qisqartirishda aholiga 232 ming gektar yer bo‘lib berilgani natijasida 770 ming odam daromad manbaiga ega bo‘ldi. Lekin tajribasi yetishmagani, sifatli urug‘, mahsulotiga bozor topishga qiynalgani uchun ularning uchdan birida daromad kamligi ko‘rsatib o‘tildi.

Shu munosabat bilan Termiz tumanidagi Tomorqa maktabi tajribasini barcha hududlarda joriy qilish, har bir viloyatda kamida 5 tadan bunday maktablarni tashkil qilib, ijraga yer olgan odamlarni serdaromad ekin ekishga o‘rgatish topshirildi. Dehqonlar ijraga olgan yerida yetishtirgan mahsulotni kafolatli sotishi uchun “Eksportchi kooperativlari” tashkil qilinadi.

Beshinchi yo‘nalish — ehtiyojmand oilalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish.

Yangi yildan “Teng imkon — inklyuziv bandlik” loyihasini joriy etib, nogironligi bo‘lgan 40 ming odamni ishli qilish muhim ekani ta’kidlandi. Bandlik jamg‘armasidan ularga 30 million so‘mgacha foizsiz ssuda ajratish yo‘lga qo‘yiladi.

Kambag‘allikka qayta tushish xavfi mavjud oilalarga ijtimoiy yordam va imtiyozlar saqlab qolinadi. Ularga 6 oy mobaynida moddiy yordam va bolalar nafaqasi to‘lanishi davom ettiriladi, bog‘cha va to‘garak xarajatini qoplash, davolanish orderi kabi 110 ta ijtimoiy xizmat va yordamdan 12 oy davomida qo‘shimcha foydalanish imkonini beriladi.

Bundan tashqari, og‘ir hayotiy vaziyat sababli kambag‘allikka tushib qolishi xavfi yuqori bo‘lgan oilalarni oldindan aniqlab, ularga manzilli yordam ko‘rsatish yo‘lga qo‘yiladi. Ish o‘rinlarini “soyadon chiqarish” masalasiga ham to‘xtalib o‘tiladi.

Ulkun maqsadlarni mablag‘ bilan boshlayapmiz. Vazirlar, ularning hududiy boshqarma va bo‘limlari, viloyat va tuman hokimlari, eng asosiysi, “mahalla yetiligi” ishga qattiq kirishmasa, o‘zgarish bo‘lmaydi, — dedi davlatimiz rahbari.

Bosh vazirga aytilgan topshiriqlarni vazir va hokimlarga 2026-yil uchun samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) sifatida belgilab berish topshirildi.

Yig‘ilishda hudud va tarmoqlar rahbarlarining hisobotlari, tadbirkorlarning fikr-mulohazalari tinglandi.

O‘ZA

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Taraqqiyot yo‘li

BORLIQ MEHRLI ONG BILAN, INSONIYAT RUHI TABIAT BILAN TIRIK

Bugun atrof-muhit mehrga, e’tiborga juda-juda muhtoj. Tabiat bilan tillashib degan qarash bor. Ammo insoniyat uzoq yillar tiriklik ne’matlari bilan hisoblashmadi, ulardan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanib, o‘rtadagi muvozanatni ta‘minlashga e’tibor bermadi.



Oqibat ko‘z o‘ngimizda. Yo‘q-yo‘q, faqat ko‘z o‘ngimizda emas, o‘zimiz, farzandlarimiz, nevaralarimiz jismidagi dardlarda, demak, tani-mizdagi og‘riqlarda namoyon bo‘lmoqda.

Gap isboti bilan. Ekologiyadagi salbiy o‘zgarishlar sabab kasalliklar yosharib bormoqda. Birgina suyak yemirilishi yoki onkologik kasalliklarni olaylik. Mutaxassis-lar aytishicha, bu kabi kasalliklar avvallari 50-60 yoshdan keyin kuzatilgan. Hozir 18 yoshli yigitda suyak yemirilishi boshlangani-ni ko‘p eshitib qolamiz...

Tog‘lardagi buloqlar qurib boryapti. Daryolar suvi tortilgan. Toza havodan nafas olish ham muammoga aylanmoqda. Abadiy muzliklar ko‘z o‘ngimizda eriyotganiga nima deysiz?!

Gapirsak gap ko‘p. Bugun insoniyat oldida esa bitta savol ko‘ndalang turibdi: atrof-muhit ifloslanishini, tabiatni qanday asrab qolamiz?

Hozir butun dunyo shu achchiq savol qarshisida lol-u hayron. To‘g‘ri, faol va jiddiy harakatlar bo‘lyapti. Ammo qayta tiklanish, muvozanatni avvalgi o‘zaniga tushirish biz

kutgandek emas. Shu bois, barchamiz, huku-mat darajasida, xalq nazorati darajasida bu muammoga hayot-mamot masalasi sifa-tida qarashni bir zum ham to‘xtatmasligimiz zarur.

Yangi O‘zbekiston siyosatida iqlim o‘zga-rishlari, ekologik inqiroz va tabiatni asrash masalasiga juda jiddiy e’tibor qaratilayotgan-ing boisi shunda.

Davomi 2-betda

MULOQOT FORMATIDAN STRATEGIK INTEGRATSIYA SARI

O‘ZBEKISTON TASHABBUSI BILAN MINTAQAMIZ HAMJIHATLIK MAKONIGA AYLANMOQDA



Markaziy Osiyo mintaqasi jahon siyosati va geoiqtisodiyotida tobora muhim o‘ringa ega bo‘lib bormoqda. 2018-yildan buyon an’anaviy o‘tkazib kelinayotgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari mintaqaviy integratsiyaning institutsional asosi, qardosh xalqlarning o‘zaro ishonchi, hamjihatligi va strategik sherikligining mustahkam poydevori sifatida e’tirof etilmoqda.

2025-yil 15-16-noyabr kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi hamda Prezidentimizning sammitdagi nutqi mintaqaviy siyosatdagi tamoyillar, maqsad va istiqbolarni yana bir bor aniq belgilab bergani bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Shu bilan birga, mazkur sammitda tarixiy voqeaga — Ozarbayjon Respublikasining mazkur formatga to‘la huquqli a’zo sifatida qo‘shilganiga guvoh bo‘ldik. Bu nafaqat Markaziy Osiyoning, balki keng Yevroosiyo mintaqasidagi integratsiya jarayonlarining yangi bosqichga o‘tayotganini ko‘rsatmoqda.

Davomi 3-betda

OTB Prezidenti:

INSON QADRI USTUVORLIGI TAMOYILI RIVOJLANISH FALSAFAMIZGA TO‘LIQ MOS KELADI

O‘zbekistonga Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Masato Kanda boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi. Tashrif doirasida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashuv o‘tkazildi, unda OTB bilan hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Masato Kanda “Dunyo” axborot agentligi muxbiriga ekslyuziv intervyu berib, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar sur‘atini yuqori baholadi.

Davomi 2-betda



“KELAJAK MEROSI” MUKOFOTI

ISHONCH VA BIRDAMLIKNING YANA BIR DALILI



Munosabat

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi mintaqaning sifat jihatidan yangi, mintaqaviy hamkorlik formatiga o‘tishini belgilab bergan tarixiy voqelik bo‘ldi. O‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha muhim tashabbuslar ilgari surilgan mazkur sammit doirasida mamlakatimizga kelgan Prezidentlar davlatimiz rahbari bilan birgalikda poytaxtimizdagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdi.

Tashrif davomida Prezidentimiz tashabbusi bilan ta’sis etilgan, adabiyot, madaniyat, san’at, fan, ta’lim va raqamli texnologiyalar sohalarida katta yutuqlarga erishgan mahalliy va xorijiy ijodkorlarni rag‘batlantirishga qaratilgan “Kelajak merosi” xalqaro mukofotini topshirish marosimi ham bo‘lib o‘tdi.

Davomi 2-betda



Taraqqiyot yo‘li

BORLIQ MEHRLI ONG BILAN, INSONIYAT RUHI TABIAT BILAN TIRIK

Boshlanishi 1-betda

Keling, endigi gapni yil nomi bilan davom ettiraylik. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2025-yil mamlakatimizda “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yili”, deb e’lon qilindi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida yilimiz nomi va maqsadlari bilan bog‘liq o‘ta muhim chora-tadbirlar taqvimini belgilangan.

Hozir ulardan ayrimlarini sanasak.

Jumladan, joriy yilgi davlat dasturida:

birinchi — mahallalarning ekologik qi-yofasini yaxshilash, ko‘chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish;

ikkinchi — aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish;

uchinchi — tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta’minlash;

to‘rtinchi — o‘simlik va hayvonot dunyosi-ni asrash, ko‘paytirish va keyingi avlodga yetkazish hamda biologik xilma-xillikni saqlash;

beshinchi — “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish kabi masalalar o‘rin olgan.

Ha, albatta, bunday chora-tadbirlar o‘z samarasini berishi tabiiy. Lekin, yuqorida ta’kidlaganimizdek, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashishda doim yangi-yangi yo‘llarni qidiraverishimiz zarur.

Prezidentimiz xuni kecha imzolagan “Ekologiya va turizm sohasidagi aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon, “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror tabiatni asrash yo‘lida barchamizga yangi maqsad va rejalarni, yangicha tafakkur ulashishi bilan ham ahamiyatlidir.

Endilikda tizimda eng muhim qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?



Salim DONIYOROV, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist



lik olamiga bo‘layotgan tajovuzlarning oldini olish so‘roq ostida qolayotgan, bu borada turli ko‘zbo‘yamachiliklar, ko‘rib ko‘rmaslikka olishlar, tabiatga nisbatan jinoiy harakatlarni legallashtirish kabi holatlar tez-tez uchrab turgan bir sharoitda mazkur qo‘mitaning mustaqil faoliyat yuritishi maqsadga muvofiqdir. Bu bilan noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olishda ta’sirchan choralar ko‘rish mexanizmi ta’minlanishi maqsad qilingan.

Endigi masala yangi tashkil etilgan qo‘mita o‘z oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni so‘zsiz va vijdonan ta’minlashda qoladi, xolos.

Ikkinchidan, Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi — Ekopolitsiya tashkil etiladi.

Bu amaliyot ko‘plab rivojlangan davlatlarda qo‘llanilib, yaxshi samara berib kelmogda. Masalan, AQSH, Germaniya, Rossiya va Yevropa davlatlarida “yashil xavfsizlik kuchlari” sifatida faoliyat yuritadigan mazkur tizim o‘zlarining faol harakatlari bilan atrof-muhit



Tabiat inson tuyg‘ulari va mehrli ong bilan tirik. Insoniyat ruhi ham tabiat ruhi bilan uyg‘un. Har ikkisi bir-biridan ayro yashay olmaydi. Tiriklik va hayotiylik, dunyoviy taqdirlar davomiyligi shu falsafa mohiyati bilan ta’minlanadi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

“KELAJAK MEROSI” MUKOFOTI

ISHONCH VA BIRDAMLIKNING YANA BIR DALILI

Boshlanishi 1-betda

Baxtni qarangki, xalqaro mukofotni o‘z egalariga topshirish vazifasi mening chekimga tushdi. Shunday qilib, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) bosh kotibi, Qirg‘iziston xalq yozuvchisi Sulton Rayev “Adabiyot”, Tojikiston xalq shoiri Davlat Safarzoda “Madaniyat”, M.Avezov nomidagi Qozog‘iston milliy drama teatri aktyori Yerkubulan Dairov “Teatr va kino”, Ozarbayjon xalq artisti Alim Gasimov “Musika va raqs”, Turkmaniston xalq artisti Babasari Annamiradov “Tasviriy va amaliy san’at” yo‘nalishida, O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi xalqaro markaz direktori o‘rinbosari, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori Dilfuza Egamberdiyeva “Fan, ta’lim va raqamli texnologiyalar” nominatsiyasining ilk sohiblari bo‘ldi. Davlat rahbarlari huzurida laureatlarga mukofot haykalchasi, diplomlar hamda 10 ming dollarlik pul mukofoti berildi.

Ushbu yuksak vazifa menga yuklatilgani O‘zbekiston Fanlar akademiyasiga katta ishonch va e’tirof demakdir. Nufuzli mehmonlar oldida yuksak mukofotni eng munosiblariga topshirish ko‘ngilga ulkan farq bag‘ishlar ekan. Aytish kerakki, ilm-fan, san’at va madaniyat yo‘nalishidagi davlat rahbarlari ishtirok etgan bunday darajadagi marosim avval bo‘lmagan. “Kelajak merosi” xalqaro mukofoti aynan shu jihati bilan unutilmas va tarixidir.

Albatta, bu nufuzli tadbirming Islom sivilizatsiyasi markazida o‘tkazilishida alohida ma’no bor. Avvalo, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining ushbu markazga tashrifi uning mintaqadagi ilmiy-ma’rifiy, madaniy va geosiyosiy ahamiyatini yana bir bor namoyon etdi. Davlatimiz rahbarining megaloyihalaridan biri bo‘lgan bu noyob durdona asrlar davomida mintaqadagi shakllangan boy ilmiy merosni keng o‘rganish, tadqiq etish va global miqyosda keng targ‘ib qilishi bilan ahamiyatli.

Markazga tashrif buyurgan mehmonlarning hayratda qolganini ko‘rdim. Zamonaviy me’morlik bilan qadimiy islom ma’rifati uyg‘unlashgan ulkan ma’naviy va ilmiy maskan ularda katta taassurot qoldirdi. An’anaviy islom me’morligiga xos naqshlar, geometrik ornamentlar va zamonaviy minimalizm, buyuk ajdodlarimizning boy ma’naviy merosiga bag‘ishlangan ekspozitsiyalar ularda hayrat uyg‘otdi. Bu kishiga



kelgusida mintaqaning ilmiy aloqalarini mustahkamlash, taraqqiyotga xizmat qiluvchi, madaniy-ma’rifiy sivilizatsiya markazi sifatida shuhrat qozonishi, yuksalishi hissiini berdi. O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi turkiy xalqlar va umuman, Markaziy Osiyo mintaqasi tarixi bilan bog‘liq boy islom merosini chuqur o‘rganish, asrab-avaylash hamda ommalashtirishni o‘z oldiga maqsad qilgan noyob ilmiy, ma’rifiy va madaniy markaz sifatida tashkil etilgan.

Ilmiy manbalar, tarixiy dalillar va zamonaviy yutuqlarga asoslangan tizimli yondashuv tufayli markaz xalqaro muloqot uchun muhim maydonga aylanib, butun dunyo olimlari, tadqiqotchilari va madaniyat muassasalarini islom sivilizatsiyasining

asl mohiyatini, uning gumanistik g‘oyalari va jahon madaniyatiga qo‘shgan salmoqli hissasini ochib berishdek umumiy ittihodlar atrofida birlashirmogda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ko‘p asrlik bog‘liqlik yangi ma’no va darajada yana bir bor ko‘rsatmogda. Buni yuqorida ta’kidlaganimiz xalqaro mukofot — “Kelajak merosi”ning 6 ta davlat fan, ta’lim, adabiyot, san’at, madaniyat

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida Prezidentimiz ilgari surgan asosiy fikr va tashabbuslar siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik, madaniy-ma’naviy hamda insoniy yo‘nalishlarni qamrab oldi. Mintaqaviy integratsiyaning yangi bosqichi, davlatlarning o‘zaro savdo hajmini oshirish imkoniyati, infratuzilma va transport loyihalarni amalga oshirishda birgalikda harakat qilish, xavfsizlik va barqarorlik, suv-energetika masalalariga e’tibor qaratildi. Institutsional arxitekturani mustahkamlash zarurati aytib o‘tiladi. Bu xalqaro sahnada Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon bir ovoz bo‘lib chiqishi kerakligini anglatadi. Shunda ularning ovozi balandroq yangraydi va e’tibor yuqoriroq bo‘ladi.

Umuman, bildirilgan fikrlar Markaziy Osiyoda o‘zaro ishonch va hamjihatlik muhitini kuchaytiradi. Yangi g‘oyalar mintaqani yagona iqtisodiy makon sifatida rivojlantiradi. Bu Markaziy Osiyo davlatlari nufuzi global darajada sezilarli oshishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

vakillariga berilishi misolida ham ko‘rish mumkin. Jamiyat rivojiga hissa qo‘shayotgan, kelajak avlod uchun ma’naviy, ijtimoiy, ilmiy qiymat yaratayotgan insonlarning yuksak xalqaro mukofot bilan taqdirlanishi yoshlarni ruhlantirishi shubhasiz. Mukofot kelajakda ilm-fan, innovatsiya, ta’lim, madaniyat va san’at sohasida katta g‘oyalarga turki beradi. Jamiyatda bilim va ijodkorlik qadri oshishiga xizmat qiladi.

Mukofot xalqaro miqyosda tan olingan, e’tirof etilgan, kelajakni bunyod etayotgan insonlarga beriladi. Ozarbayjon hamda Markaziy Osiyo davlatlarining tanqili insonlari qatorda yurtidoshimiz Dilfuza Egamberdiyevaning borligi ham faxrlil. Bu mamlakatimizda ayollarga ko‘rsatilayotgan yuksak e’tibor va

ishonchning yorqin tasdig‘idir. Bu ilm yo‘nalishida izlanayotgan yoshlarni ruhlantiradi. Qolaversa, mamlakat imijiga ham munosib hissa qo‘shadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining tarixiy uchrashuvi boshlanishi arafasida “Yangi O‘zbekiston” gazetasida Prezidentimizning “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” maqolasi e’lon qilindi. Unda davlatimiz rahbari astasekin Markaziy Osiyoning yangi mintaqaviy o‘ziga xosligi vujudga kelayotganini ta’kidlaydi. Maqolada keyingi yillardagi o‘zgarishlar tahlil qilinlar ekan, galdagi vazifalar xususida ham so‘z yuritiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida Prezidentimiz ilgari surgan asosiy fikr va tashabbuslar siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik, madaniy-ma’naviy hamda insoniy yo‘nalishlarni qamrab oldi. Mintaqaviy integratsiyaning yangi bosqichi, davlatlarning o‘zaro savdo hajmini oshirish imkoniyati, infratuzilma va transport loyihalarni amalga oshirishda birgalikda harakat qilish, xavfsizlik va barqarorlik, suv-energetika masalalariga e’tibor qaratildi. Institutsional arxitekturani mustahkamlash zarurati aytib o‘tiladi. Bu xalqaro sahnada Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon bir ovoz bo‘lib chiqishi kerakligini anglatadi. Shunda ularning ovozi balandroq yangraydi va e’tibor yuqoriroq bo‘ladi.

Umuman, bildirilgan fikrlar Markaziy Osiyoda o‘zaro ishonch va hamjihatlik muhitini kuchaytiradi. Yangi g‘oyalar mintaqani yagona iqtisodiy makon sifatida rivojlantiradi. Bu Markaziy Osiyo davlatlari nufuzi global darajada sezilarli oshishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Shavkat AYUPOV, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti, O‘zbekiston Qahramoni, akademik

OTB Prezidenti: INSON QADRI USTUVORLIGI TAMOYILI RIVOJLANISH FALSAFAMIZGA TO‘LIQ MOS KELADI

Boshlanishi 1-betda

— Avvalo, intervyuga vaqt ajratganingiz uchun rahmat. O‘zbekistonga xush kelibsiz.

— Katta rahmat. Bu yurtga yana kelganimdan mamnunman.

— Joriy yilda Osiyo taraqqiyot banki va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlikning 30 yilligi nishonlanmogda. Sizningcha, bugungi kunda ushbu sheriklik qanday darajaga ko‘tarilgan va 30 yillik davomida mamlakatimiz taraqqiyotiga eng katta ta’sir ko‘rsatgan asosiy bosqichlar qaysilar?

— Ha, bu juda muhim bosqich. O‘tgan 30 yil davomida O‘zbekistonga 118 ta loyiha orqali 15 milliard dollardan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi. Mazkur loyihalar infratuzilma, energetika, transport, davlat korxonalarini isloh qilish, inson kapitalini rivojlantirish kabi deyarli barcha strategik sohalarni o‘z ichiga oladi.

Yaqinda imzolangan 1,2 milliard dollarlik quyosh energiyasi va quvvat qashqar loyihasi e’tiborga molik. 1000 megavatt quvvat 600 mingta xonadon uchun toza energiya demakdir. Bu O‘zbekistonning “yashil” energetikaga o‘tishda mintaqadagi yetakchi davlatga aylanishiga zamin yaratadi. Biz aholining, ayniqsa, himoyaga muhtoj qatlamlarning hayotini yaxshilash uchun O‘zbekiston hukumati bilan birga ishlayotganimizdan faxrlanamiz.

— O‘zbekiston chuqur va aniq maqsadli islohotlarni amalga oshirmogda: kambag‘allikni qisqartirish, xususiy sektorga keng imkoniyat yaratish, zamonaviy raqamli infratuzilmani shakllantirish. Bu borada erishilgan natijalarni qanday baholaysiz? Ayni paytda OTB ushbu bilan qo‘llab-quvvatlamogda?

— O‘zbekistonning islohotlar siyosati juda aniq: inson manfaatlari birinchi o‘rinda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasidagi “Inson sha’ni va qadr-qimmatini” tamoyillari bizning rivojlanish falsafamiz bilan to‘liq uyg‘un. Biz kambag‘allikni kamaytirish, ijtimoiy himoya tizimini yaxshilash, iqtisodiy modernizatsiya va uzoq muddatli rivojlanishga xizmat qiladigan islohotlarni qo‘llab-quvvatlashdan mamnumiz.

Ayniqsa, xususiy sektorni rivojlantirish — eng muhim yo‘nalishlardan biri. Davlat korxonalarini isloh qilish, tadbirkorlik uchun qulay sharoit yaratish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish bo‘yicha O‘zbekiston bilan faol ishlayapmiz. Bu islohotlar mamlakat iqtisodiyoti barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

— OTB Markaziy Osiyoda mintaqaviy bog‘liqlikni kuchaytirishda muhim rol o‘ynab kelmogda. SARES kabi yirik tashabbuslar doirasida O‘zbekiston qanday hissa qo‘shmogda va bu dasturlardan qaysi asosiy yo‘nalishlarda foyda ko‘rmogda?



— Bilasizmi, bu juda muhim. Integratsiya iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiradi, bozorlarga chiqishni osonlashtiradi, logistika xarajatlarini kamaytiradi va qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

Bu dasturda O‘zbekistonning ishtiroki juda faol. Bu faqat yo‘l va temir yo‘li infratuzilmasi emas, balki savdo tartibotlarini soddalashtirish, bojxona tizimini raqamlashtirish, “Yashil energetika yo‘lagi” kabi strategik tashabbuslarni ham o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonning mintaqaviy yetakchilik ambitsiyasi bizni ham ruhlantiradi.

— O‘zbekiston Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilish yo‘lida faol harakat qilmogda. JSTga a’zo bo‘lish jarayoni OTB bilan hamkorlikning yangi bosqichini qanday shakllantiradi? Kelgusida qaysi yo‘nalishlar ustuvor bo‘ladi?

— Biz O‘zbekistonning JSTga qo‘shilish bo‘yicha qat’iy sa’y-harakatlarini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz. Bu jarayon mamlakatning global iqtisodiyotga chuqur integratsiyasiga xizmat qiladi. Osiyo taraqqiyot banki savdo siyosatini takomillashtirish, bojxona tartibotlarini moslashtirish, savdo yengilliklarini yaratish, standartlashtirish va sertifikatlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha texnik va institutsional yordamni davom ettiradi. Raqamli ko‘nikmalar va kadrlar salohiyati ham bu jarayonning ajralmas qismi.

Shu o‘rinda bir muhim yangilikni aytmoqchiman: kelgusi yili OTBning yillik yig‘ilishi Samarqand shahrida o‘tkaziladi. Bu — jahonning yetakchi moliya vazirlari, markaziy bank raislari, ekspertlar va biznes doiralari vakillari birlashtiradigan eng nufuzli xalqaro platformalardan biri. Ushbu yig‘ilish O‘zbekiston uchun o‘z yutuqlarini namoyish etish va kelgusidagi strategik rejalarni bo‘yicha global auditoriyaga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilish imkoniyatini yaratadi.

nazarda tutuvchi har qanday shakldagi hujjatni qabul qilish qat’iyan taqiqlandi.

Bu juda muhim va yurtdoshlarimizning haqli e’tirozlariga adolatli javob bo‘lgan qaror ekanini ta’kidlashni istardik. Demak, endilikda daraxtlarni kesish uchun parda ortidagi harakatlarga chek qo‘yiladi.

Shu o‘rinda yana bir mulohaza. Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda poytaxtimizda tabiatga nisbatan nafratli harakatga ko‘zimiz tushdi. Ko‘p qavatli obyektlardan birida daraxtlarni qasddan yo‘qotish uchun ularga bo‘yoq sepilayotgan tasvirlar tarqaldi.

Ochig‘i, ularga nima deyishga ham hayron-san kishi. Bunday harakat va maqsadni hech bir bahona bilan oqlab bo‘lmaydi axir. Demochimizki, daraxtlarni kesishga davlat boshqaruvi organlari ruxsatini bekor qilish yaxshi, albatta. Ammo ularni qasddan yo‘qotishga bo‘lgan urinishlardan saqlanishimiz kerak bo‘ladi.

Beshinchidan, 2026-yil 1-apreldan mahalla ahlining kamida 10 foizi rozilik bildirgan taqdirda, mahalla hududidagi daraxtli yer maydonini olib qo‘yish va boshqa maqsadlar uchun ajratishga taqiq kiritiladi. Bu taqiq kadastr bazasida ham aks etadi.

Biz yuqorida xalq nazorati haqida gapirgan edik. Bunda katta umummilliy birdamlik harakati bor.

Gap shundaki, keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy birlashuv hodisasi kuzatilmogda. Bu, aytaylik, jamoaviy sport — futbolda erishayotgan natijalarimizda, aholi o‘z hududini obod qilishga bo‘lgan intilishlari — “Ochiq budjet” platformasi harakatlari, qabul qilinayotgan huquqiy-me’yoriy hujjatlariga nisbatan bildirilayotgan fikrlar, jamoaviy muhokamalar va hokozalarda ko‘zga tashlanmogda.

Endi atrof-muhitni asrash yo‘lida ham birlashish uchun huquqiy asos yaratilmogda. Bir daraxtni kesish xalq bilan muhokama qilinadi, ularning roziligi olinadi, rozilik berilmasa, demak, bu daraxt yana gullab-o‘saveyadi.

Tabiat inson tuyg‘ulari va mehrli ong bilan tirik. Insoniyat ruhi ham tabiat ruhi bilan uyg‘un. Har ikkisi bir-biridan ayro yashay olmaydi. Tiriklik va hayotiylik, dunyoviy taqdirlar davomiyligi shu falsafa mohiyati bilan ta’minlanadi. Shunday ekan, biz bugun daraxtlarni kesish, atrof-muhitga zarar yetkazib, muvaqqat foyda olish yo‘llarini emas, tabiat bilan birgalikda taraqqiy etish maqsadlarini ko‘zlab yashashimiz kerak bo‘ladi.

Davlatimiz rahbarining “Inson, jamiyat, iqtisodiyot va tabiatning uyg‘un ravishda rivojlanishi — ajdodlarimizdan meros qadriyatdir. Shu ma’noda, umumiy maqsadimiz atrof-muhitni asrab-avaylash, bi-xilma-xillikni saqlash, inson hayotining tabiat bilan uyg‘unligini ta’minlashdir”, degani gaplari zamirida ham ana shu hayotiy haqiqatni anglaymiz.

Demak, bugun bizning oldimizda tabiat musaffoligini ta’minlash bilan bog‘liq insoniy vazifalar turibdi. Ularni vijdonan amalga oshirish bugungi va ertangi hayotimiz, kelajak avlodlarimiz oldidagi qarzimizdir. Prezidentimiz kuni kecha imzolagan farmon va qaror ana shu maqsad va vazifalar yo‘lida barchamiz uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.



MULOQOT FORMATIDAN STRATEGIK INTEGRATSIYA SARI

O‘ZBEKISTON TASHABBUSI BILAN MINTAQAMIZ HAMJIHATLIK MAKONIGA AYLANMOQDA



Qahramon QURONBOYEV,
siyosiy fanlar doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Siyosiy iroda va sa’y-harakatlar samarasi

Dastlab yaqin tarixga nazar tashlasak. Davlatimiz rahbari 2017-yil 20-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq soʻzlab, Oʻzbekiston Markaziy Osiyo barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qoʻshnchilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdor ekanini bildirgan hamda mintaqada davlatlari Prezidentlarining muntazam uchrashuvlarini tashkil etish tashabbusini ilgari surgan edi.

Oradan koʻp vaqt oʻtmay, ushbu taklif qoʻllab-quvvatlanib, 2018-yil 15-mart kuni Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi Maslahat uchrashuvi boʻlib oʻtdi.

Oʻshanda Qozogʻiston Respublikasining birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev “Siz Oʻzbekistonda juda katta ishlarni amalga oshiryapsiz va bu butun mintaqamizga ijobiy ta’sir koʻrsatmoqda. Kecha Tojikiston, bugun Qirgʻiz Respublikasi Prezidentlari bilan gaplashdim. Ular ham sizning siyosiy irodangiz

Xususan, Oʻzbekistonning mintaqada davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 2016-yildagi 2,4 milliard dollardan 2024-yilda 7,2 milliard dollarga yetdi, qoʻshma korxonalar soni esa 1800 dan oshdi.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, oʻtgan qisqa davrda mintaqamiz tubdan oʻzgardi, ochiq muloqot va faol amaliy hamkorlik tufayli dolzarb muammolarga samarali yechimlar topildi. Bugun Markaziy Osiyo haqiqiy ma’nodagi jadal taraqqiyot va hamjihatlik makoniga aylanib ulgurdi.

Janubiy Kavkaz — birlashuvning yangi oʻqi

Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon oʻrtasidagi munosabatlar alohida xususiyatga ega. Bu munosabatlar koʻp asrlik umumiy tarix, ma’naviy va madaniy meros, birodarlik, doʻstlik va hamjihatlikka asoslanadi. Keyingi yillarda bu aloqalar nafaqat asrab qolindi, balki strategik sheriklik darajasiga koʻtarildi. Ozarbayjon Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuviga toʻlaqonli a’zo sifatida qabul qilinishini buning amaliy tasdiqi sifatida keltirish mumkin.

Mazkur prinsipial qarorni davlatimiz rahbari quyidagicha izohladi: “Ushbu strategik qadam umumiy tarix, qardoshlik rishtalari, ma’naviy va madaniy yaqinlik bilan uzviy bogʻlangan xalqlarimiz manfaatlariga toʻliq javob beradi.

Men qat’iy ishonamanki, qardosh Ozarbayjonning qoʻshilishi Maslahat uchrashuvlarimizga kuchli shiddat beradi, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, barqaror taraqqiyot masalalari boʻyicha hamjihatlikda qarorlar ishlab chiqish uchun yangi uqlarni ochadi.

Mohiyatan biz Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz oʻrtasida mustahkam koʻpriklar barpo etmoqdami, hamkorlikning yagona makonini shakllantirishga yoʻl ochmoqdamiz. Bu ikki mintaqaning strategik bogʻliqligi va barqarorligini kuchaytirishi shubhasiz.”

Oʻz navbatida, Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev “Markaziy Osiyo davlatlari hamkorlik formatiga Ozarbayjonning qoʻshilishi toʻgʻrisida qabul qilingan qaror uchun hamkasblarimga rahmat aytaman.



davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuviga Ozarbayjon qoʻshilishi bilan mintaqamizning dunyo hamjamiyatidagi ovozi yanada koʻproq ahamiyatga ega boʻlishi shubhasiz.

Uchinchidan, tarkibiy jihatdan kengayish mintaqaviy barqarorlikka katta hissa boʻlib qoʻshiladi. Chunki Janubiy Kavkaz — geosiyosiy jihatdan oʻta nozik hudud. Uning Markaziy Osiyo bilan yaqinlashuvi Yevroosiya davlatlari barqarorlik va ishonch muhitini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu ma’nodagi davlatimiz rahbarining “Biz Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz oʻrtasida mustahkam koʻpriklar barpo etmoqdamiz”, degan soʻzlari mintaqada kelajagining aniq strategik yoʻnalishini belgilaydi.

Mintaqaning oʻzgarayotgan kun tartibi

Keyingi paytlarda “Markaziy Osiyo plus” shaklidagi muloqotlar soni yildan yilga koʻpaymoqda, ya’ni bugun 10 ga yaqin mana shunday format mavjud. Eng muhimi, Prezidentimiz “Markaziy Osiyo plus” formati doirasida bir nechta muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda va bu formatdagi muloqotlarning strategik ahamiyatini oshirishga harakat qilmoqda. Ya’ni bundan koʻzlangan asosiy maqsad — “muloqot formati”dan “strategik integratsiya”ga oʻtish, amaliy hamkorlik mexanizmlaridan samarali foydalanish.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarida Oʻzbekiston ilgari surayotgan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya va energetika, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarni rivojlantirish, suv va ekologik muammolarni hal qilish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash kabi bir qancha takliflar bir ovoddan qoʻllab-quvvatlanib, hayotda oʻz ijrosini topmoqda.

Shu ma’nodagi, Toshkent sammitida ham Prezidentimiz mintaqaviy integratsiyaning kelgusi 10-20 yillik istiqbolini belgilab berishga qaratilgan gʻoyat qimmatli tashabbuslarni ilgari surdi. Ular orasida eng muhim besh yoʻnalish sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin.

Birinchidan, Maslahat uchrashuvining institutsional asoslarini kuchaytirish, ya’ni “Markaziy Osiyo hamjamiyati” strategik formatini yaratish, doimiy kotibiyat tashkil etish, Oqsqollar kengashini tuzish. Bu qadamlar,

shubhasiz, formatning rasmiy, barqaror va samarali institutsional tuzilmaga aylanishini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, savdo va investitsiyani 1,5-2 barobar oshirish, ya’ni 2035-yilga qadar mintaqaviy iqtisodiy dasturni qabul qilish, yagona investitsiya makoni toʻgʻrisidagi deklaratsiyani ishlab chiqish, elektron tijoratning umumiy maydonchasini barpo etish. Hozir mamlakatlar oʻrtasidagi savdo qiymati 10,7 milliard dollarni tashkil etadi. Yaqin 5-7 yilda bu koʻrsatkichni ikki baravar oshirish imkoni bor.

Uchinchidan, mintaqaviy infratuzilma va transport yoʻlaklari masalasi. “Xitoy — Qirgʻiziston — Oʻzbekiston” temir yoʻli, Transafgʻon koridori, Transkaspий yoʻlagi kabi loyihalar Markaziy Osiyoni global savdo markazlaridan biriga aylantirishi mumkin.

Toʻrtinchidan, xavfsizlik va barqarorlik mexanizmlari. Bu, oʻz navbatida, mintaqaviy xavfsizlik konsepsiyasi, tahdidlar katalogi, Afgʻonistonni iqtisodiy loyihalarga integratsiya qilishni nazarda tutadi.

Beshinchidan, ekologiya va suv resurslariga e’tibor qaratish, “Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish” oʻn yilligini e’lon qilish. Zero, suv taqchilligi — mintaqaning eng katta tashvishi. Bu yoʻnalishdagi hamkorlik tinchlik va barqarorlikning asosiy kafolatidir.

Prezidentimizning Toshkent sammitidagi nutqida uzoqni koʻzlangan yoʻnalishlaridan



ya’ni biri Markaziy Osiyoda yagona ma’naviy-madaniy makonni shakllantirish gʻoyasidir. Bugungi beqaror geosiyosiy muhitda ma’rifat, bilim va madaniy birlashtiruvchi kuch sifatida qadr topayotgani bejiz emas. Buni Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyati yoʻliga qoʻyilgani, Toshkentda ma’naviy meros va ma’rifatparvarlik gʻoyalarga bagʻishlangan birinchi xalqaro kongress oʻtkazilgani misolida ham koʻrish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Oʻzbekiston BMT Bosh Assambleyasining mintaqamizdagi taniqli olim va mutafakkirlarining global ma’rifatparvarlik rivojiga qoʻshgan hissasiga bagʻishlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish, Mintaqaviy ilmiy tadqiqotlar jamgʻarmasini tuzishni taklif etdi. Shubhasiz, ushbu tashabbuslar Markaziy Osiyoning jahon

ma’naviy xaritasidagi ulugʻ mavqeini tiklashga xizmat qiladi.

Ushbu tashabbuslar yagona maqsadga — Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy kabi buyuk zotlarni tarbiyalagan, ilm birlamchi qadriyat sifatida e’zozlangan ulkan ma’rifat hududini zamonaviy sharoitda qayta tiklashga qaratilgan. Bu harakat ilmiy-madaniy aloqalarni kuchaytirib, Markaziy Osiyoning jahondagi intellektual raqobat va innovatsiyalar maydonida yanada ta’sirchan ishtirokchi sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi.

Dunyo yetakchilari e’tirofi

Keyingi oylarda Oʻzbekiston dunyo tashqi siyosatining eng faol ishtirokchisiga aйлandi. Prezidentimizning ikki marta AQSHga safari, Slovakiya, Finlyandiya Prezidentlarining mamlakatimizga ilk tashrifi, UNESCO Bosh Assambleyasining 43-sessiyasi va boshqa koʻplab muhim xalqaro tadbirlarning yurtimizda oʻtkazilgani fikrimizning yorqin isbotidir.

Mazkur nufuzli anjuman va uchrashuvlar davlatimiz rahbarining uzoqni koʻzlangan, dono va pragmatik tashqi siyosati natijasidir. Prezidentimizning bunday tashabbus va gʻoyalarga yetakchi davlatlar liderlari yuksak baho bermoqda.

koʻrgan” iborasi shakllanganini ma’lum qildi. “Muxtor Avezov va boshqa taniqli ziyolilar shu yerda oʻqigan. Shundan beri qozoq tilida “U Toshkent koʻrgan” iborasi bor”, dedi Qozogʻiston Prezidenti.

Qirgʻiz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov ham Oʻzbekiston rahbarini Samarqand shahrida UNESCO Bosh Assambleyasining 43-sessiyasi muvaffaqiyatli oʻtgan bilan tabriklaydi. Sessiya 40 yil ichida birinchi marta Parijdan tashqarida boʻlib oʻtgan, bu esa Markaziy Osiyoning xalqaro gumanitar jarayonlardagi roli ortib borayotganini tasdiqlovchi chinakam tarixiy voqea boʻlganini ta’kidlaydi. Sadir Japarov Markaziy Osiyoning chinakam hamjihatligi muhiti sezilayotgan qardosh Oʻzbekistonga doimo oʻzgacha tuygʻu bilan kelishini alohida qayd etdi.

Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev Oʻzbekiston Shavkat Mirziyoyevning oqilona rahbarligida taraqqiyot va bunyodkorlik yoʻlidan dadil borayotganini qayd etdi. Ulkan xalqaro nufuz, samarali iqtisodiy islohotlar, sanoat, transport, qishloq xoʻjaligi sohalaridagi keng koʻlamli loyihalar Oʻzbekistonda mintaqada yetakchi oʻringa olib chiqdi. Prezidentimizning gʻamxoʻrligi tufayli Oʻzbekiston jahonning yetakchi sport davlatlari qatorida borayotgani, soʻnggi yozgi Olimpiya oʻyinlari buni yaqqol koʻrsatgani e’tirof etildi.

Ilhom Aliyev Shavkat Mirziyoyevning nafaqat donishmand davlat arbobi, balki Oʻzbekiston va Ozarbayjon munosabatlari rivojlantirishga katta hissa qoʻshgan inson ekanini ham alohida ta’kidlaydi. Ozarbayjonda davlatimiz rahbari aniq ishlari, bu millatga yaxshi munosabati tufayli cheksiz hurmat qilinishini bildirdi.

“Yangi Markaziy Osiyo” konsepsiyasining mustahkamlanishi

Toshkentda oʻtkazilgan yettinchi Maslahat uchrashuvini mintaqada tarixida yangi siyosiy oʻzan tomon qoʻyilgan muhim qadam sifatida e’tirof etsak maqsadga muvofiq. Ozarbayjonning ushbu formatga qoʻshilgani, yirik strategik loyihalar ilgari surilgani, xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlikning yangi mexanizmlari taklif etilgani — bularning barchasi “Yangi Markaziy Osiyo” konsepsiyasining nazariy gʻoyadan amaliy siyosat darajasiga koʻtarilayotganidan dalolat.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo oʻz manfaatlarini va umumiy kelajagini oʻzi belgilaydigan mintaqada mintaqada namoyon boʻlmoqda. Mazkur jarayonda Prezidentimizning “Bizning kuchimiz — birlikda, yoʻlimiz — doʻstlik va hamkorlikda” degan fikri butun formatning ma’naviy-siyosiy shioriga aylandi, desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Zero, Markaziy Osiyo faqat iqtisodiy salohiyatning oshishi yoki logistik yoʻlaklarning kengayishi emas, balki uygʻun qadriyatlar, mustarak tarix va kelajak oldidagi umumiy mas’uliyat ifodasidir. Qat’iy siyosiy iroda bilan koʻrilayotgan amaliy hamkorlik Markaziy Osiyoni global siyosiy-iqtisodiy jarayonlarda yanada jozibali va kuchli mintaqaga aylantirishi tabiiy.

Bir guruh vatandoshlarimizga ilk bor tashkil etilgan “Inson faxri” milliy mukofoti topshirilgani haqida avval ham xabar bergan edik.

Mazkur milliy mukofot mamlakatimizda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida kechayotgan islohotlar, hech kim e’tibordan chetda emasligini anglatuvchi muhim ijtimoiy tadbir sifatida tarix sahifasiga muhrlandi. Binobarin, mukofotlar eng mas’uliyatli damlarda yuksak fazilatlarini namoyon etib, ko’makka muhtojlarga yordam qo’lini cho’zgan, fidoyilik ko’rsatgan, mehnati, hayotini ezigulikka bag’ishlagan insonlarga nasib etdi.

Jamiyat mustahkamligi va rivoji, avvalo, odamlarning bir-biriga munosabatida ko’rinadi. Agar ular o’rtasida o’zaro hurmat, insoniylik va yordam ko’rsatish madaniyati kuchli bo’lsa, bunday jamiyatda tinchlik, birdamlik va mehr-oqibat barqaror bo’ladi. Milliy mukofot egalari ana shunday sog’lom va tiniq qalbi, go’zal fazilatlari bilan jamiyat rivojiga hissa qo’shib kelayotgan oddiy odamlar. Boshqalarning dardiga befarq bo’la olmaslik, qiyin damlarda tayanch va suvanch bo’lish, mehr-shafqat, kechirimlilik va adolat tamoyillariga sodiqlik, hech qanday tamasiz odamlar hayotini o’zgartirishga qodir fidokorona harakatlar ularni bugun elu yurt hurmatiga sazovor etdi. Ularning faoliyatini keng jamoatchilikka yetkazish, turli sohalaridagi ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy tashabbuslarni qo’llab-quvvatlash, fuqarolar ijtimoiy faolligini oshirish maqsadini ko’zda tutgan tadbir haqiqiy qahramonlarni kashf etdi.

Biz taqdirlanganlardan ayrimlarining fikr-mulohazalarini yozib oldik.



Ozoda ULUG‘OVA,
Toshkent viloyati Qibray tumani
“Imkon” Reabilitatsiya markaziga
ega ko’p tarmoqli ixtisoslashtirilgan
maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari:

— Nogironligi bo’lgan bolalar va kattalarni qo’llab-quvvatlash, mehr-muhabbat ko’rsatish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Tarbiyalanuvchilarimiz nozik ta’b, mehrga, alohida parvarishga muhtoj bo’lgan bolalar. Har birining individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda alohida yondashib, ularni ham ta’lim, ham tarbiyaviy, ham jismoniy jihatdan rivojlantirib borishga intilamiz.

“Imkon” markazida 2-7 yoshli o’g’il-qizlar uchun 10 guruhdan iborat ko’p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim

tashkiloti hamda 18 yoshgacha bo’lganlar uchun reabilitatsiya maskani faoliyati yo’lga qo’yilgani ko’plab dardmand ko’ngillarga davo bo’ldi. Davolash tadbirlari rivojlanishdagi kamchiliklarni tuzatishga, tibbiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashuvga yo’naltirilgan. Buning uchun zarur barcha tibbiy shart-sharoit yaratilgan. Yetakchi xorijiy tashkilotlar ishtirokida maxsus tayyorgarlik va malaka oshirishdan o’tgan tajribali mutaxassislar ota-onalar va farzandlariga ko’mak berib kelmoqda.

Ana shu kichik xizmatlar e’tibordan chetda qolmadi. “Fidoyilik ramzi” nominatsiyasida g’olib bo’ldik. Buning uchun tashkilotchilarga samimiy minnatdorlik bildiraman. Mukofot jamoamizga quvunch bilan birga mas’uliyat ham yukladi. Bu bolalar uchun yanada kengroq imkoniyat yaratish, jamiyatga moslashuvini ta’minlash mas’uliyati. Mazkur mukofot har kuni mehri va qo’llab-quvvatlashi bilan bolalarga g’amxo’rlik qilayotgan barcha hamkasblarimniki. Metin irodali har bir bola hayotni qadrlashga o’rgatadigan farzanddir. Ular bilan ishlash qalbmizga taskin beradi. Albatta, har bir bolaning ko’ngliga yo’l topish oson emas. Ular bizga mehr va e’tiborning qiymati baland ekanini eslatib turadi. Har bir yutuq, oldinga intilish, rivojlanish yangi marralar sari undayaveradi.

Erishilayotgan yutuqlar jamoamizning jonkuyarligi, fidoyiligi, sabri va ishonchi e’tirofidir.

AYOLLARNI RUHLANTIRISH — MAQSADIMIZ



Bibisora ORIPOVA,
“Rahmdillik” maskani rahbari,
“Mehr yo’li” nominatsiyasi g’olibi:

— Ko’p yillardan beri taqdir og’ir sinovlarini boshidan kechirayotgan, himoyasiz qolgan ayollarga yordam kerakligiga amin bo’lib kelayotgan edim. Ana shu istak ortidan “Rahmdillik” nomli muassasa tashkil etdik. Hayotda tayanchi va suvanchini yo’qotgan ayollar qalbiga umidni qaytarish, yaxshi ishlarga ruhlantirish, salomatligini tiklashga ko’mak ko’rsatish aslida har birimizning vijdon ishimiz bo’lishi lozim. Chunki ularning taqdiriga befarq qarab bo’lmasdi. Avvaliga kichik bir xonada to’rt kishilik joy tayyorlandi. Keyinroq o’rinlar soni kengayib bordi. 20 ta xonada 50 ayol farzandlari bilan joylashishiga imkoniyat yaratdik. Ulardan har birining dardi mening dardim, iztirobini qalbim iztirobi deb qabul qilardim.

Chorasizlik bilan kelgan ayollarni kuzatar ekanman, ularga halovat, ishonch va ko’mak naqadar zarurligini his qilaman. Tinch-osoyishta muhitda ular o’zini tiklay boshlaydi. Inson

sifatida qadr va mehrga munosibligini anglaydi. Qobiliyati ochiladi, kimdir gilam to’qiydi, kimdir tikuvchilik qiladi. Qo’lidan kelgan ishga jalb etishga, daromad topishiga ko’mak ko’rsatamiz. Ba’zan mahalliy hokimlik orqali yer ajratiladi, boshpana tiklashiga yordam beramiz. O’zgarayotgan taqdirlarni ko’rib, tin olaman. “O’zingga shukr, bir qalbda chiroq yoqildi”, deyman ichimda.

Men bu ishlarni mukofot yoki boshqa moddiy manfaatdorlik uchun qilmaganman. Insonni inson qiladigan ham uning yaxshi ishlari. Qiyin damlarda kichik bir tasalli, bir og’iz yaxshi gap insonning ruhini ko’tarishi, hayotini yaxshi o’zanga burib yuborishi mumkin. Bu o’z-o’zidan bo’lmaydi. Odamlarni bir-biriga bog’lab turgan ko’rinmas rishtalar, ya’ni o’zaro hurmat va insoniylikdan yuzaga keladi. Astasekin atrofdagi odamlarda ham yaxshilik qilish istagi shakllanadi. Axir bir-biriga ko’mak berish madaniyati xalqimiz tabiatiga begona emas.

Mukofot olishni kutmagan edim. Kichik mehnatlarim bu qadar ulug’lanishi ko’nglimni yoritib yubordi. Elning muhabbati va bizga munosabatini ko’rib, taqdirim og’ir sinovlarini boshidan kechirayotgan insonlarga yanada ko’proq yordam berish istagi kuchaydi. Chunki yurtimizdagi hech bir ayol menga begona emas. Biri opam, biri singlim, qizim. Ularning barchasi men birdek qadrlar. Ularning muammolari aritish, dardiga malham bo’lish, yo’qolgan umidlarini qaytara olish aslida men uchun katta mukofot.

“Inson faxri” orqali kashf etildik. Bu O’zbekistonda xotin-qizlarga e’tibor, ularning harakatlari, orzu-intilishlari, muammo va yutuqlariga hukumatning befarq emasligidan dalolat beradi.



Mohira BOLTAYEVA,
Toshkent shahridagi Abu Ali ibn
Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan
maktabning kimyo fani
o’qituvchisi, “Shaxsiy yutuq”
nominatsiyasi g’olibi:

— Yurtimiz ilm-fani rivojiga ozmi-ko’pmi hissa qo’shib kelayotgan yosh pedagog sifatida milliy mukofot darajasida qadrlanishimni xayolimga ham keltirmagandim. Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashabbusi bilan ilk bor taqdim etilgan “Inson faxri” milliy mukofotining tantanali taqdirlash marosimida qatnashar ekanman, butun vujudimni kuchli hayajon egalladi. Zero, shu paytgacha bo’lgan taqdirlashlar, e’tiroflar bu darajada ta’sirli bo’lmagan men uchun. Nazarimda, barcha taqdirlanganlar uchun ham shunday.

To’g’ri, bu yil O’zbekiston tarixida birinchi marta Xalqaro kimyo olimpiadasida 2 ta oltin, 2 ta kumush medalga ega bo’ldik. 90 dan ortiq davlat orasida 6-o’rinda turish har birimizga

YURT TAQDIRIGA DAXLDORLIK HISSI

milliy g’urur bag’ishlaydi. Natijalarimiz yildan yilga o’sib borayotganida, albatta, berilayotgan imkoniyatlar muhim omil bo’lyapti. Endi nafaqat o’quvchilar, balki o’qituvchi ham munosib rag’bat ollyapti. Bu ham asosiy omillardan biri. Zero, bunday rag’bat o’quvchini ham, o’qituvchini ham o’z ustida ko’proq ishlashga undayapti. Yangi avlodda ilm olish istagi kuchayyapti.

O’quvchi ham kimdadir kerakligini sezadi. Pulni ota-onasiga berib g’ururlanadi. Chunki o’zim ham o’quvchi bo’la turib birinchi marta ilmim bilan qariyb 70 million mablag’ topa

olganimga xursand bo’lib ketganman. Biroq xalqaro olimpiadada oltin olishning o’zi eng katta yutuq. Har bir davlat qahramonlarini o’ziga xos taqdirlaydi. O’zbekistonda 2019-yildan olimpiada g’oliblarini rag’batlantirish tizimi yo’lga qo’yilgan bo’lsa, shundan buyon biz, olimpiadachilar davlatimiz e’tibori va e’tirofidamiz. Bundan ruhlaniganimiz, ishonchini oqlashga bel bog’laganimiz uchun ham bugunga kelib Xalqaro kimyo olimpiadasi bo’yicha kuchli 10 talikka kirib oldik. Vaholanki, 2022-yilda ham oltin medalimiz yo’q edi. Nasib qilsa, bu

yog’iga shu natijani qo’ldan boy bermaymiz, kuchlilar safidan qolmaymiz. Ayniqsa, keyingi yilgi Xalqaro kimyo olimpiadasiga mezbon bo’lishimiz soha fidoyilari qatori menga ham juda katta mas’uliyat yuklagan. Bu tizimdagi barcha insonlar uchun juda hayajonli.

Biroq endi bizning butun dunyo havas qiladigan alohida maktablarimiz, eng zamonaviy laboratoriyalarimiz bor. Biz olimpiadaga tayyorlangan paytlarimizda laboratoriya masalasida muammo bo’lar edi. Hozir hammasi a’lo, sharoitlar yetarli. Shunday bo’lsa-da, xulosa o’rinda aytishni istardimki, oiladagi ilmga munosabat birlamchi ahamiyatga ega. Xususan, bizning oilamizda ilm olishga jiddiy e’tibor qaratib kelingan. Asosiy mablag’ bilimga yo’naltiriladi edi. Hozir ham shunday. Ota-onam meni qo’llamaganida, balki hech qachon olimpiadaga qatnashmagani bo’lardim. Maktab bosqichidan tortib, har bir ishtirokchil uchun ular mendan-da ko’proq qayg’urgan va yonimda turgan. Ayni paytda shogirdlarimning ota-onasi ham farzandi uchun har narsaga tayyor. O’zbekiston kelajagining umidli vakillari deb biladiganim — yuzdan ziyod shogird hayotiga, ilmda yuksalishiga ozigina daxldor bo’lgan bo’lsam, benihoya baxtliman. Chunki yoshlar muvaffaqiyatiga daxldorlik yurt kelajagiga daxldorlikdir.

“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari
Risolat MADIYEVA,
Munajat MO‘MINOVA
tayyorladi.

Ijtimoiy himoya



Umidjon UMAROV,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi
Buxoro viloyati boshqarmasi
boshlig’i

Buxoro viloyatida
ehtiyojmand va ijtimoiy himoyaga
muhtoj fuqarolar uchun
yaratilayotgan imkoniyatlar, beg’araz
ko’mak, e’tibor va g’amxo’rlik
odamlar hayotini engillashtirish
bilan birga kelajak sari ishonchli
qadamlarga zamin hozirlamoqda.
Prezidentimizning tegishli farmoni
va qarori ijrosi doirasida Buxoro
viloyatida 34 ta muassasa va 7 ta
tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi
aholiga xizmat ko’rsatmoqda. “Inson”
ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali
ko’rsatilayotgan xizmat turlari 49
tadan 109 tagacha ko’paygan.

Birgina shu yilning o’zida 9400 dan ziyod oilaga ijtimoiy ish ochilib, ularning ehtiyojiga qarab 200 mingga yaqin individual xizmat rejası ishlab chiqildi. Mahalla va markazlarda ishlayotgan ijtimoiy xodimlar 203 mingdan ziyod arizani qabul qilib, ko’plab oilalarni qo’llab-quvvatladi. “Yagona ijtimoiy himoya reyestri”ga kiritilgan minglab oilalarga oyma-o’ya nafaqa va moddiy yordam to’lab kelinmoqda.

Masalan, o’tgan kuz-qish mavsumida 40 mingdan ziyod oilaga bir martalik moddiy yordam berildi. Elektr va gaz to’lovini to’lashda qiynalgan 13 mingdan ziyod oilaga davlat hisobidan kompensatsiya ajratildi. “Saxovat va ko’mak” jamg’armasi orqali 3000 dan ortiq fuqaroga dori-darmon, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy ta’miri va boshqa yo’nalishlarda yordam ko’rsatildi.

Bugun viloyatda mingdan ziyod yolg’iz keksa va o’zgalar parvarishiga muhtoj kishi istiqomat qilmoqda. Ularni tibbiy ko’rlikdan o’tkazish, ro’zg’or ishlarga yordamlashish, moddiy ko’maklashish tizimi yo’lga qo’yilgan. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-iyundagi “O’zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga vaucher asosida yangi ijtimoiy xizmatlardan foydalanish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga asosan “Faol hayotga qadam” dasturi ishga tushirilib, keksalarga kunduzgi parvarish, tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya, uy sharoitida maishiy yordam kabi yangi xizmatlar ko’rsatila boshladi.

Joylarda tazyiq va zo’ravonlikka uchragan xotin-qizlar uchun “Birlamchi ko’mak onalari” ochildi. Bugunga qadar minglab ayollar va farzandlari bu yerda vaqincha panoh topdi, huquqiy va psixologik yordam oldi. 6000 dan ziyod ayol himoya orderi bilan ta’minlandi.

ERTANGI KUNGA UMID TIMSOLI



“
Oila energiya xarajati uchun davlat tomonidan
taqdim etilgan kompensatsiya dasturiga kiritildi.
Bu nafaqat moddiy yengillik, balki hayotga
ishonch, kelajakka umid timsoli bo’ldi.
”

Viloyatimizda nogironligi bo’lgan 62 mingdan ziyod shaxs yashaydi. Ularni tibbiy ko’rik, reabilitatsiya xizmati, protez-ortopediya moslamalari bilan ta’minlash yo’lga qo’yildi. 2024-yildan boshlab bu vositalarni onlayn xarid qilish imkoniyati paydo bo’ldi.

Shuningdek, nogironligi bo’lganlarni sportga jalb qilish, jamiyatga to’laonli moslashtirish maqsadida marafonlar, paralimpiadalar o’tkazilmoqda. “Inson uchun” shiori ostidagi tadbirlar viloyat ahlining ijtimoiy birdamligini

kuchaytirdi. “Muruvvat” uylari va oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilari ham davlat himoyasida. Bu yerda ular nafaqat parvarishlanayapti, balki turli to’garaklar, kasb-hunarga o’rgatish ishlari bilan ham qamrab olinmoqda.

Shu o’rinda ba’zi misollar bilan o’rtoqlashaylik. Shofirkon tumani Mahallaqozi mahallasida yashovchi Dilorom Nasrullayeva uzoq yillar davomida sog’lig’idagi muammo, doimiy oyoq og’rig’i va oqsoqlanish sababli

ishlash va muammolari haqida kimlargadir murojaat qilishga jur’at topa olmagan. Qiyin hayotiy sinovlar uni sustkashlikka, soqinlikka o’rgatgan, ammo yuragidagi umid chirog’i so’nmagan edi. Mahallaga birkiritilgan ijtimoiy xodim tufayli ayolning hayotida tub burilish yasaldi. Sog’lig’i qayta ko’rib chiqilib, unga ikkinchi guruhi nogironlik nafaqasi va bolasi uchun nafaqa tayinlandi.

O’tgan yilning ayozli qishi Dilorom opaning oilasi uchun og’ir sinovli palla bo’ldi. Ammo Prezidentimizning joriy yil 2-apreldagi “Yoqilg’i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishda ehtiyojmand aholini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori u kabi yurtdoshlarimiz uchun yana bir imtiyoz eshigini ochdi. Oila energiya xarajati uchun davlat tomonidan taqdim etilgan kompensatsiya dasturiga kiritildi. Bu nafaqat moddiy yengillik, balki hayotga ishonch, kelajakka umid timsoli bo’ldi.

Bugun Dilorom opa va turmush o’rtog’i voyaga yetmagan uch farzandining tarbiyasi bilan. Eng muhimi, ularning hayotiga munosabati butunlay o’zgargan.

Kogon tumani Bahouddin Naqshband mahallasida istiqomat qiluvchi Maxfirat Atoyeva ikki farzandning onasi. Turmush o’rtog’i ichkilikka berilib, davolanish kursidagi uchun oila ko’plab muammolar girdobida qolgan edi. Lekin uning hayotida ham ijobiy o’zgarishlar boshlandi.

Mahalla ijtimoiy xodimi Shahnoza Mulkamolova tomonidan ishlab chiqilgan individual xizmatlar rejası asosida fuqaro istiqomat qilayotgan uy ta’mirlab berildi. O’zi esa Ayollarni reabilitatsiya qilish va

moslashtirish markaziga joylashtirildi, farzandlari uchun nafaqa tayinlandi. “Saxovat va ko’mak” jamg’armasi hisobidan moddiy yordam berilib, energiya xarajatlari uchun kompensatsiya to’lovi rasmiylashtirildi. Bugun Maxfirat Atoyeva farzandlari va oilasining ertangi kunidan ko’ngli to’q.

Shofirkon tumani Navbahor mahallasida yashovchi Dildora Mahmudova uchinchi guruh nogironi bo’lishiga qaramay, hayotga muhabbati baland. Turmush o’rtog’ining ko’zi ojiz, birinchi guruh nogironi. Qaramog’idagi qaynsinglisi ham birinchi guruh nogironi. Shunday bo’lsa-da, Dildora opa bu og’irlikni sabr, mehr va iroda bilan yengib, voyaga yetmagan besh farzandini shukrona bilan tarbiyalamoqda.

Mahalla ijtimoiy xodimi Hulkar Mirzayeva bu oilaning holatini o’rganib, kambag’allik reyestriga kiritdi va zarur yordam ko’rsatdi. Qish mavsumida energiya kompensatsiyasi to’lab berildi. Oilaviy shifokorlar ishtirokida chuqur tibbiy ko’rik tashkil etildi. Farzandlariga o’quv qurollari olib berildi, to’garaklarga qatnashiga sharoit yaratildi. Oilaning ikki nafar bolasi xususiy bog’chaga bepul joylashtirildi. Qaramog’idagi qaynsinglisi “Yakka-yolg’izlar reyestri”ga kiritilib, unga ham kompensatsiya tayinlandi.

Eng muhimi, “Faol hayotga qadam” dasturi doirasida turmush o’rtog’iga qarovchi sifatida Dildora opaga ish haqi tayinlandi. Bu yordamlar nafaqat oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holatini barqarorlashtirdi, balki ayolning mehnatiga munosib baho bo’ldi.

Bugun Buxoro viloyatida ijtimoiy himoya yo’nalisida qilinayotgan ishlar oddiy yordam emas, balki insoniy qadr-qimmatni tiklash, og’ir ahvolda qolgan fuqarolarning hayotga qaytishiga imkoniyat berishdir. Dilorom, Maxfirat, Dildora singari ayollarning hayot yo’li nafaqat shaxsiy jasorat namunası, balki jamiyat, davlatning ularni qanday qo’llab-quvvatlayotganining yorqin isbotidir.



Albatta o'qing!

Iboralar hikoyati

(“SO‘Z XUSUSIDA SO‘Z” KITOBIDAN)



II

Yulduz bilan bog'liq “istarasi issiq” degan ibora bor. U yuzida yaxshilik alomati sezilib turgan, iliq muomalali kishiga nisbatan ishlatiladi. Bunday “istara” yulduz ma’nosidagi “istara” yoki “sitara” so’zidir. “Astronomiya”, “astrologiya”, “astrofizika” degan so’zlarning “astro” qismi ham ana shu “istara”ga tarixan aloqador.

Demak, “istarasi issiq” lug’aviy jihatdan yulduzi issiq degani ekan. Yulduzning, munajjimler e’tiqodiga ko’ra, kishining tabiatiga ta’siri bor. Shunga binoan, “yulduzi issiq” tabiatan iliq degan ma’noni beradi.

Mazkur iboraga ma’nodosh “mehrigiyosi bor” degan ibora ham mavjud. Bu iboradagi “mehrigiyo” so’zining tarixi qiziq.

Ko’pchilik yoqtiradigan, xalq mehriini qozongan kishi haqida “mehrigiyosi bor” yoki “mehrigiyosi bo’lsa kerak” degan iboralarning kelib chiqishiga odamlar orasida bor, lekin g’ayritilmiy bir naql sabab bo’lgan. Bu naqlga ko’ra “mehrigiyo” deb atalgan o’simlikni yonida olib yurgan kishi ko’pchilikning mehriiga muvassar bo’ladi. Mehrigiyo qanday o’simlik degan savolga bir necha xil javob bor. “G’iyoys ul-lug’at”da bu kungaboqar guliga nisbatan ishlatilishi aytilgan. Bu holda “mehri”dan murod quyosh bo’ladi. Chunki “mehri” so’zining quyosh ma’nosi bor. Buning qadimgi shakli “mitra” bo’lib, oftobparastlik ma’nosidagi “mitrakult” so’zi tarkibida saqlangan. “Giyo” asli “giyoh” o’t degani. O’sha lug’atda yana mehrigiyoga tomiri inson shakliga ega bo’lgan o’t, deb ta’rif berilgan. Bunda mehrigiyo yunoncha va ruscha nomi “mandragora” bo’lgan o’tning oti va bu holda uning mehri qismi inson, er ma’nolariga ega “martiya” so’zining o’zargan shakli bo’lib chiqadi. “Mandragora” so’zining “mandra” qismi ham ana shu “martiya” so’ziga aloqador. Hozirgi “mard” so’zining asli ham “martiya”dir. Demak, “mehrigiyo” so’zining lug’aviy ma’nosini “quyosh o’t” va “inson o’t” deb tushunish bor ekan.

Bularning to’g’risi “inson o’t” bo’lib, mazkur o’simlikning tomiri shaklan insonga o’xshagan bo’lgani uchun uni “mehrigiyo” deb ataganlar. Ammo “mehrigiyosi bor” degan iboraning kelib chiqishiga “mehri”ni hozir mashhur shafqat, muhabbat ma’nosida tushunish sabab bo’lgan.

“Dalv”ning lug’aviy ma’nosi qovg’a, ya’ni quduqdan suv chiqaradigan ko’ndan ishlangan meshdir. Dalv burjining suvrati qo’lidagi idishdan suv to’kib turgan kishi shaklida. Yusuf Xos Hojib dalv burjini ko’nak degan. Ruschasi “vodoley”, ya’ni “suvto’kar”dir.

Dehqonlarimizga xos oy hisobi va shu oylarning nomi bilan bog’liq “Hut kirdi — dehqonning ichiga qurt kirdi”, “Hamal kirdi — amal kirdi”, “Asad — ekinining yasati”, “Sunbulada suv tinadi”, “Sabzi va turp qavs suvini ichishi kerak” degan ibora va gaplar bor. Bularning ma’nosini yaxshi anglash uchun quyidagi ma’lumotga murojaat etishimiz kerak.

Mazkur oylar tabiiy quyosh yiliga mansub bo’lib, uning tabiiyligi jihatdan sifatli, tabiatdagi quyosh bilan bog’liq bo’lgan fasliy o’zgarishlar

etadi. Shu bilan yil va uning to’rt fasli tugaydi. Bu yilning oylari burjlarning nomi bilan ataladi. Bahorning birinchi kuni yilboshi hisoblanadi va u “Navro’z” deb ataladi. Quyosh Navro’zdan, ya’ni bahorgi e’tidoldan boshlab 31 kun, burjlarning qadimgi o’miga ko’ra, hamal burjida bo’ladi. Shuning uchun bahorning birinchi oyi hamal oyi yoki qisqacha hamal deb ataladi. Bu oyda ekin ekishi ishlari amaliy tus olgani sababli “hamal kirdi — amal kirdi” degan ibora qo’llanadi. Hamalning birinchi kuni martning yigirma birinchisiga to’g’ri keladi.

Oftobning bir burjdan chiqib, ikkinchi burjga kirishi “tahvil” deyiladi. Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida:

Hamal tahvili etkach mehri gulchehr — Ochar yuz gul zamona ko’rgach uch mehr, deydi. Ya’ni gul chehrali quyosh hamalga tahvil etgach, hut burjidan chiqib hamal burjiga kirgach, zamona ul quyosh va tabiat mehri tufayli turli-tuman gullarni ochadi.

Bahorning ikkinchi oyi savr deyiladi. Savrning birinchi kuni aprelning yigirma birinchi kuniga to’g’ri keladi.

Keyingi oy javzo deb ataladi. Javzoning birinchi kuni mayning yigirma ikkinchi kuniga to’g’ri keladi. Javzo ko’klam faslining uchinchi, ya’ni oxirgi oyidir.

Shundan keyin saraton oyi keladi. Uning birinchi kuni iyunning yigirma ikkinchi kuniga to’g’ri keladi. Saratonda suv kam bo’lib yoki boshqa sabablarga ko’ra ekin qondirib sug’orilmasa, yaxshi avj olmaydi. Shuning uchun dehqonlarimiz, ekin saraton suviga qonmasa, avji bo’lmaydi, deydi.

Yoz faslining ikkinchisi asad bo’lib, ushbu oyda ekin hosilga kira boshlaydi. Bu oyda ekinga yaxshi ishlov berilsa, hosil mo’l bo’ladi. Shuning uchun dehqonlarimiz “Asad — ekinining yasati” deydi. Asadning birinchi kuni iyul oyining yigirma uchinchisiga to’g’ri keladi. Yozning oxirgi oyi sunbula bo’lib, bunda ariq va daryolardan tiniq suv oqadi. Shuning uchun “Sunbulada suv tinadi” deyiladi. Sunbulaning birinchi kuni avgustning yigirma uchinchi kuniga to’g’ri keladi.

Kuz faslining birinchi oyi mezon bo’lib, uning birinchi kuni sentyabrning yigirma uchinchi kuniga to’g’ri keladi.

Keyingi oy aqrab deb ataladi. U kuz mavsumining ikkinchi oyidir. Aqrabning birinchi kuni oktyabrning yigirma uchinchi kuniga to’g’ri keladi.

Aqrabdan so’ng qavs keladi. Uning birinchi kuni noyabrning yigirma ikkinchi kuniga to’g’ri keladi.



keladi. Dehqonlar orasida “turp va kechki sabzi qavs suvini ichsa yaxshi bo’ladi” degan gap bor.

Qavsdan so’ng qishning birinchi oyi — jady keladi. Bu so’zda “d” harfidan keyin “y” harfi keladi. “I” harfi yo’q. Jadyning birinchi kuni dekabrning yigirma ikkinchi kuniga to’g’ri keladi. Jadydan so’ng qishning ikkinchi oyi — dalv keladi.

Shundan keyin hut boshlanadi. Uning birinchi kuni fevralning yigirmanchi kuniga to’g’ri keladi. Jady, dalv va hut oylari qish fasliga oid. Qishning oxirgi oyi — hutda dehqonchilikka tayyorgarlik boshlanadi. Binobarin, “hut kirdi — dehqonning ichiga qurt kirdi”, deyiladi. Chunki bu oyda dehqonlar gap-gashtaklarni yig’ishtirib, shoshilinch tarzda ekin-tikin asboblarni tuzatib, urug’, ko’chatlarni ekishga hozirlay boshlaydi.

Fasliy oylar hozirgi astronomiya fanida “tropik yil”, “astronomik bahor” va “astronomik kuz” deb ataladigan tabiiy mavsumlarni o’zida aniq aks ettiradi.

Ammo bu oylarni bugungi astronomik xulosalar bilan solishtirganimizda burj bilan



shu burj nomiga qo’yilgan oy o’rtasida ixtilof mavjudligini ko’ramiz. Hozirgi astronomiyada bahorgi tengkunlik nuqtasi hamal burjida emas, hut burjida deb ko’rsatiladi, lekin xarita va jadvallarda bu nuqtaga qadimgidek hamal belgisi qo’yiladi.

Bahorgi tengkunlik nuqtasi esa, hozirgi astronomiyada mezon burjida emas, sunbula burjida deb ko’rsatiladi, lekin qog’ozda bu nuqta qadimgidek mezon belgisi bilan ifodalangani. Bu ixtilofning sababini bilish uchun avval “Burj nima?” degan savolga javob bermoq lozim.

Ma’lumki, yer kurrasini, ya’ni yer sharini osmon qurshab olgan. Yerni qurshagan osmon ham shar shaklida tasavvur qilinadi. Yerning o’z o’qi va quyosh atrofiga aylanishi hamda o’g’ishi natijasida osmonning va undagi jismlarning yerga nisbatan o’rin o’zgartirishi “ko’rinma harakat” deyiladi. Yerning quyosh atrofigadagi yillik harakati quyoshning aylanadan iborat yillik ko’rinma harakatini hosil qiladi.

Quyoshning mana shu aylanma harakat yo’li “burjlar mintaqasi”, “burjlar falagi” yoxud “ekleptika” deb ataladi. Aylanani teng o’n ikkiga bo’lganda o’ttiz nuqtasi bahor e’tidoliga to’g’ri keladi. Mana shu har bir bo’lakni quyosh bir oyda bosib o’tadi. Har bir oy haddi aqall, ya’ni minimum yigirma yetti kun va haddi aksar, ya’ni maksimum o’ttiz ikki kundan iborat. Mana shu har bir bo’lak “burj” deyiladi va har bir burj shu burjdagi yulduz turkumi nomi bilan ataladi. Yulduz turkumlarining har biri biror narsa shaklida tasavvur qilingani uchun “suvrat” yoki “shakl” deb ataladi. Burj ruscha “znak zodiaka” deyiladi. Qadimgi tilimizda burj ma’nosida “ukak” degan so’z ham ishlatilgan. “Burj” va “ukak” so’zlarining haqiqiy ma’nosi ruscha “bashnya” so’zining ma’nosiga to’g’ri keladi. “Ekleptika” so’zi esa “tutilish” degan ma’noda bo’lib, quyoshning tutilishi uning mazkur yillik yo’lida sodir bo’lgani uchun burjlar mintaqasi “ekleptika” deb atalgan.

Hamal burjidagi suvrat, ya’ni yulduz turkumi qo’y shaklida tasavvur qilingan va osmon adaslarida shu shaklda berilgan. Shuning uchun bu burjni “hamal” yoki “qo’zi” deb ataganlar. Ruschada “oves” bo’ladi. Hozir arablar “kabsh” ham deydi. “Kabsh” qo’chqor degani.

Savr — ho’kiz, buqa degani. Savr burjining suvrati buqa shaklida. Qadimgi turkiyda “ud” yoki “uy” ham deyilgan. “Ud” va “uy” qoramol degani. Navoiy, Bobur va boshqalar qoramol, ya’ni sigir, buqa va ho’kizning umumiy nomi sifatida “uy” so’zini ishlatgan. Savrning ruschasi — “teles”.

Javzoning suvrati egizak shaklida, lekin “javzo” so’zining lug’aviy ma’nosi beli oq-qora qo’ydir. Bunday qo’y qora qo’ylar orasida yaxshi ajralib turadi. Javzo suvrati ham boshqa suvratlardan aniq ajralib turgani uchun shunday deb atalgan. Javzo yana tav’amon deb ham ataladi. Tav’amon egizak degani. Ruschasi blizness, ya’ni egizakdir. Yusuf Xos Hojib bu burjni “erandiz” degan.

Saratoning suvrati qisqichbaqa shaklida. Saraton va uning qadimgi turkiy nomi “qo’chiq” hamda ruschasi “rak” ham qisqichbaqa degan ma’noda.

Asadning suvrati arslon shaklida. Asad va uning ruschasi “lev” ham arslon degani. Yusuf Xos Hojib asad burjini “arslon” deb atagan.

Aqrab – chayon degani. Aqrab burjining suvrati chayon shaklidir. Yusuf Xos Hojib bu burjni chazan, ya’ni chayon degan. Ruschasi “skorpion” bo’lib, bu ham chayondir.

Sunbulaning suvrati qo’liga bug’doy boshog’i ushlab olgan qiz shaklidir. Sunbula bug’doy boshog’idir. Yusuf Xos Hojib sunbula burjini “Bug’doy boshog’i” degan. Ruschasi “Deva” bo’lib, ma’nosi qizdir. Arabchada “Azro” degan so’z ham sunbula burjining suvratiga nisbatan ishlatiladi. “Azro” ham qiz degani.

Mezon — tarozi degani. Mezon burjining suvrati tarozi shaklidir. Yusuf Xos Hojib bu burjni “ulgu” deb atagan. Ruschasi “vesi” bo’lib, bu tarozi degan ma’noda.

Aqrab — chayon degani. Aqrab burjining suvrati chayon shaklidir. Yusuf Xos Hojib bu burjni chazan, ya’ni chayon degan. Ruschasi “skorpion” bo’lib, bu ham chayondir.

Qavsning suvrati belidan quyi qismi ot shaklida va yoydan o’q otayotgan odam. “Qavs” so’zining lug’aviy ma’nosi yoydir. Yusuf Xos Hojib bu burjni “yo” deb atagan. Ruschasi “streles” bo’lib, o’q otuvchi degan ma’noda. Arabchada “romiy” degan so’z ham ishlatiladi. Bu ham “otuvchi” degan ma’noni anglatadi.

“Jady” so’zi echkini bildiradi. Jady burjining suvrati belidan pastki qismi baliq dumidan iborat sho’xli echki shaklidir. Yusuf Xos Hojib bu burjni “o’g’loq” ya’ni uluq deb atagan. Ruschasi kozerog bo’lib, echkishox yoki echki shoxi degan ma’noni bildiradi.

“Dalv”ning lug’aviy ma’nosi qovg’a, ya’ni quduqdan suv chiqaradigan ko’ndan ishlangan meshdir. Dalv burjining suvrati qo’lidagi idishdan suv to’kib turgan kishi shaklida. Yusuf Xos Hojib dalv burjini ko’nak degan. Ruschasi “vodoley”, ya’ni “suvto’kar”dir.

Baliqning kattasi yoki kit “hut” deyiladi. Hut burjining suvrati dumlari bir-biriga tasma bilan bog’langan baliqlar shaklidir. Yusuf Xos Hojib bu burjni “baliq” deb atagan. Ruschasi “рыбы”, ya’ni baliqlardir.

“Shamsiy” yoki “quyosh yili”, “qamariy” yoki “oy yili”, “taqvimiyy” yoki “kalendar yili” degan atamalar ham bor. Agar yilning oy kunlari yer kurrasining quyosh atrofiga bir marta aylanib chiqishi yoki ko’rinma harakat nuqtayi nazaridan o’n ikki burjni aylanib chiqishi bilan belgilansa, u “shamsiy” yoki “quyosh yili”, ruscha “solnechniy god” deb ataladi.

Agar yil davomati osmondagi oyning yangilanishi bilan belgilansa, bunday yil “qamariy” yoki “oy yili”, ruscha “lunniy god” deyiladi. “Taqvimiyy” yoki “kalendar yili” deganda yilning taqvimda, kalendarda, ya’ni qog’ozdagi aksi tushuniladi. Kalendarning o’zi ham ikki xil bo’ladi. Shamsiy aks etgan kalendarni “shamsiy taqvim” yoki “quyosh kalendari”, ruscha “solnechniy kalendar” deb, qamariy aks ettirilgan kalendarni “qamariy taqvim” yoki “oy kalendari”, ruscha “lunniy kalendar” deb ataydilar.

Yer quyosh atrofini uch yuz oltmish besh kun besh soat va taxminan chorak kam qirq to’qiz daqiqada aylanib chiqadi. Demak, quyosh yili uch yuz oltmish besh kun besh soatu chorak kam qirq to’qiz daqiqaga teng ekan. Kalendarda faqat kunlarning soni aks ettirilib, soat va daqiqalar aks ettirilmaydi. Kalendardagi yil 365 yoki 366 kunda tugaydi. Kalendar yili quyosh yilidan orqada qolishi, uzayib ketmasligi uchun to’rt yilda bir bor 366 kunlik qilib tuziladi. Qo’shilgan bir kun “kabisa” deyiladi. Kabisali yil “kabisa yili” deb ataladi, ruschasi esa “visokosniy god” bo’ladi.

Oy yiliga tuziladigan kalendarlarda ham tabiiy oy yili aniq aks etmaydi. Chunki oy yigirma to’qiz kuno o’n ikki soatu qirq to’rt daqiqadan sal ortiq vaqtda yangilanadi va oy o’n ikki marta yangilanganda uch yuz ellik to’rt kuno salkam to’qiz soat vaqt o’tadi. Shunday qilib oy kalendari ham tabiiy oy yili aniq aks etmas ekan.

Tabiiysidan qog’ozdagisini farqlash uchun “kalendar yili” degan termin vujudga kelgan. Navro’z va umuman, fasliy oylarning boshi hozirgi kalendarimizning aniq bir kuniga to’g’ri kelmasligining sababi ham shunda. Navro’z, ya’ni hamalning birinchi kuni kalendarimiz kabisali yilda taxminan martning yigirma birinchi kuniga, kabisasiz yilda esa, yigirma ikkinchi kuniga to’g’ri keladi. Qolgan oylar ham shu xilda farq qiladi.

Endi “tropik yil” va “bessel yili” degan terminlarga ham izoh beraylik. Hozirgi astronomiyada fasl hisobga olingan quyosh yili “tropik yil” deb ataladi va bu mazmunan “fasliy yil” terminiga to’g’ri keladi. Bessel yili Grigoriy kalendariga moslashtirilgan sun’iy quyosh yilining birinchi kuni dekabrning o’ttiz birinchi yoki yanvarning birinchi kuniga to’g’ri keladi. Bessel yili astronomiyada osmon jismlarining harakat va o’rni belgilashda ishlatiladi. Grigoriy kalendari xalqaro miqyosda qo’llangani uchun Bessel yilining amaliy qulayligi bor.

Endi nima uchun qadimgi astronomiyada bahorgi e’tidol nuqtasi hamal burjida, kuzgisi esa mezon burjida deb ko’rsatilgan, ammo hozirgi astronomik ma’lumotlarga ko’ra bahorgi tengkunlik nuqtasi hut burjida, kuzgisi esa sunbula burjida deb ko’rsatiladi degan savolga javob berishimiz kerak. Agar buning sababini aytmasak, qadimgi olimlar xatoga yo’l qo’ygan degan xulosaga kelish ham mumkin. Holbuki, xato qilingan emas. Yerga nisbatan burjlarning o’rni bir oz o’zargan. Shuning uchun qadimgi vaqtda hamal burjida kuzatiladigan nuqta hozir hutda, mezondagisi sunbulada kuzatiladi. Bu siljishning sabablari shunday. Sayyoralariga nisbatan sobita, ya’ni turg’un yulduz deb ataladigan yulduzlar ham aslida harakatga ega yulduzlardir. Buni Abu Rayhon Beruniy ham ta’kidlab o’tgan. U turg’un yulduzlarning harakati sezilarisiz darajadadir, deydi. Burjlarning yerga nisbatan siljishining hozir astronomiyada hisoblab aniqlangan sababi shuki, yerning o’z o’qi atrofiga tekis aylanmasdan tebranib aylanishi va o’z o’qini o’zgartirishi natijasida osmonga nisbatan siljish ro’y beradi. Natijada tengkunlik nuqtalari ham burjlar doirasida quyoshning yillik harakatiga qarshi yo’nalishda ilgarilab boradi. Bu “pretsessiya”, ya’ni ilgarilash deb ataladi. O’z o’qi atrofiga aylanayotgan jismlarning tebranishi hozirgi ilmda “nutatsiya” deyiladi. Ammo biologiyada “nutatsiya” so’zi bir oz boshqacha ma’no kasb etgan. Yerning nutatsiya davri o’n sakkiz o’tindan olti yilga teng, protsessiya davri esa 26000 yilga teng. Bu tengkunlik nuqtalari burjlar doirasini 26000 yilda bir marta aylanib chiqadi, degan so’z. Bir burjni esa 2166 yildan sal ortiqroq muddatda bosib o’tadi. Shu hisobga binoan, bahorgi va kuzgi e’tidol nuqtalari bir yilda burj mintaqasida quyoshga qarama-qarshi yo’nalishda taxminan besh sekund ilgarilaydi.

Bultur astronomiyada, yerning yillik davri oldingi yillarga nisbatan bir sekund uzoqroq bo’lgan degan gap bo’ldi. Bu holda mazkur siljish masofasi ham kamroq bo’lgan bo’ladi.

Shunday qilib, sobitlarning, ya’ni turg’un yulduzlarning xususiy harakati va yer kurrasining notekisligi, quyosh va oyning ta’siri natijasida bo’ladigan nutatsiya va pretsessiya tufayli burjlarning vaziyati ko’rinma harakatda yerga nisbatan o’zgarar ekan. Shuning uchun hozir bahorgi e’tidol hamalda emas, hutda sodir bo’lar ekan. Lekin qog’ozda bahorgi e’tidol nuqtasi ilgarigidek hamal alomati bilan belgilanadi. Kuzgi e’tidol esa hozir sunbulada yuz bersa ham, an’anaga ko’ra, mezon belgisi bilan ifodalanadi.

Alibek RUSTAMOV,
filologiya fanlari doktori,
akademik

“Yangi O’zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro’yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-1146.
34685 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Boboravshan G‘oziddinov
Musahhih: Akbar Qarshiyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko’chasi, 85-uy

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etiladi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko’chasi, 41-uy.